ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI – BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI MUHIM MANBA SIFATIDA

Sattarova Nodira O‘tkir qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Tayanch doktorantura talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7725988

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompetensiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, nutqiy kompetensiya atamasi, o‘quvchilarning nutqiy kompetentligini oshirishda Ona tili va o‘qish savodxonligi fanining tutgan o‘rni va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрено понятие компетентности и ее сущность, термин речевая компетентность, роль и значение родного языка и науки о грамотности чтения в совершенствовании речевой компетенции учащихся.

Abstract: This article describes the concept of competence and its essence, the term of speech competence, the role and importance of mother tongue and the science of reading literacy in improving students' speech competence.

Kalit so‘zlar: ta'lim, kompetensiya, kompetentlik, nutqiy kompetensiya, nutq, Ona tili va o‘qish savodxonligi, tamoyil, tinglab tushunish, eshitish, o‘qish, yozish.

Ключевые слова: образование, компетентность, компетентность, речевая компетентность, речь, родной язык и грамотность чтения, принцип, аудирование, аудирование, чтение, письмо.

Key words: education, competence, competence, speech competence, speech, mother tongue and reading literacy, principle, listening comprehension, listening, reading, writing.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish va shu asnoda barkamol avlodni kamol toptirish masalasi dolzarb va ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Zero, Kofi Annan ta’biri bilan aytganda, "Ta’lim har bir jamiyatda, har bir oilada taraqqiyot zaminidir" [5].

Ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar negizida yosh avlodni har jihatdan komil va yurt kelajagiga munosib hissa qo‘sha oladigan shaxs sifatida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini rivojlantirishga alohida urg‘u berilmoqda. "Ta’lim hayotga tayyorgarlik emas, ta’lim – bu hayotning o‘zi" deydi Jon Dyui. Darhaqiqat,ta’lim jarayoni hayot bilan uzviy bog’lanmas ekan, bilimlar

kompetentlikka yo’l ochmasligi shubhasiz. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda maktab ta’limi tizimida yangi darsliklar, yangi manbalar yaratildi. Jumladan, ta’limdagi tub o‘zgarishlarga olib kelgan yangi Milliy o‘quv dasturi asosida endilikda o‘quv fanlari chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o’qitilishi belgilab olindi. Ya’ni mavzular takroriy emas, balki bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo’naltirilgan tarzda kiritildi. Bu esa darsliklar bosqichida takrorlarning oldini oladi, bolaning yangi bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishida yordam beradi.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, Milliy o‘quv dasturi asosida 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarida Ona tili va O‘qish fanlarining birlashuvi natijasi “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani joriy etildi va hamda ushbu fanga "yashashni o‘rgatadigan fan" deya ta’rif berilmoqda.. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o‘qitishdagi yondashuvning o‘zgarishi bo‘ldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta’limdan tinglab tushunish, o‘qib tushunish, fikrni og‘zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o‘rgatishning to‘rt ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim shakliga o‘tildi.

Ona tili va o’qish savodxonligi fanini o’qitishda asosiy e’tibor o’quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim jarayonida o’quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o’rgatish orqali ularning ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o’qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuv, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

4. O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza

yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga koʻtarish; oʻqish orqali borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; tanqidiy va kreativ fikrlash koʻnikmasini oshirish nazarda tutiladi.

4. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. Oʻquvchining oʻqib, eshitib tushunish, ogʻzaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

6. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida oʻquvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, "soʻzni hazm qila olish" imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

7. Ta'lim jarayonida oʻquvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga oʻrgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

8. Yozma nutq bilan bogʻliq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda, bolaning bogʻlanishli nutqini oʻstirish, matn yaratish koʻnikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e'tibordan chetda qoladi. Ona tili va oʻqish savodxonligi darsligida ushbu jihatlarga e'tibor qaratilgan: notoʻliq matnni toʻldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

9. Har bir mashgʻulot tilni oʻzlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi. Ya'ni mashq daftari orqali oäquvchular bilimlarini zanada mustahkamlaydilar. Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi.

Oʻquvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, boʻsh oʻrinlarni toʻldirishlari, oʻqib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bogʻliq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni boʻyashlari mumkin [3].

Fanning maqsadi hamda yuqoridagi tamoyillarga tayangan holda Ona tili va oʻqish savodxonligi fanini oʻqitishning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- oʻquvchini fikrlashga, oʻzgalar fikrini anglash, o'z fikrini ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish;
- oʻquvchilarda grammatikaga oid oʻzlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish;
- tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda toʻgʻri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish kabilar. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili ta'limining mazmuni oʻzgarmoqda. Yillar davomida ona tili ta'limi orqali oʻquvchilarga

grammatik qonun-qoidalar, nazariy bilimlar o‘rgatib kelindi. Endilikda grammatika bilan bir qatorda o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikmani shakllantirish darkor [4].

Mavzuga doir mashqlar topshirig‘ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g‘oya mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me’yorlariga asoslanib so‘zlab berish hamda yozish, o‘z nutqini og‘zaki va yozma shaklda erkin ifodalash o‘quvchilar egallashi zaruriy bo‘lgan muhim kompentensiyalardir. Ushbu kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligini e’tirof etsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqoridagi fikrimizning isboti sifatida 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan topshiriqlarni o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur darslikning 1-bobi "Katta bo‘lsam, Nobel mukofotini olaman!" deb nomlangan. Ushbu bobni o‘rganish davomida o‘quvchilar rasmlar asosida olim, olima tushunchalari haqida, ularning nimalar bilan shug‘ullanishlari to‘g‘risida o‘zlarining mustaqil fikrlarini bayon qilishga, shuningdek, xalqimizning boy ma’naviy merosi bo‘lmish maqollar va ularning mazmun-mohiyati xususida mushohada yuritishga o‘rgatiladi. Bu orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, ongli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsad qilingan.

Darslikning ushbu bobida o‘quvchilarga "Nobel mukofoti" audiomatni eshittiriladi va eshitganlari asosida bir necha savollarga javob berishlari topshirig‘i beriladi:

1. Alfred Nobel nimalar ixtiro qilgan edi?
2. Nega u o‘zi qilgan ishlardan pushaymon bo‘ldi?
3. Olim nima sababdan Nobel mukofotini o‘ylab topdi?
4. Nobel mukofoti qaysi sohalar bo‘yicha beriladi?

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayonida o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, o‘quvchilarning nutqini o‘stirish maqsadga muvofiqdir. Audiomatnni tinglash va ma’lumotlarni eslab qolish, shu orqali berilgan savollarga javob topish o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyaning muhim elementi bo‘lgan tinglab tushunish ko‘nikmasining shakllanib borishiga xizmat qiladi.

O‘z fikrlarini yozma nutq asosida bayon qilish va o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatish, yozish ko‘nikmasini oshirish maqsadida olimlar nimalar bilan shug‘ullanishi haqida kichik matn yozish, "Katta bo‘lsam, Nobel olaman" nomli hikoya tuzish topshiriqlari ham ushbu bobda berilgan [1].

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi bo‘limlar va topshiriqlar bilan tanishib chiqar ekansiz, darslikning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga, turli holatlar, muammolarga o‘z munosabatini bildira oladigan shaxs sifatida shakllanishiga alohida ahamiyat qaratilganiga guvoh bo‘lishingiz shubhasiz. Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari kun sayin taraqqiy etayotgan davrda faqat kitob va daftar bilan kifoyalanib, o‘quvchini ta’lim olishga undash imkonsiz. Shu bois Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklari uchun multimedia ilovalari hamda audiomatnlar majmuasi, o‘quvchi daftari ham ishlab chiqildi. Umuman olganda, yangi darslik o‘qituvchini qolipdan chiqib ishlashga, kreativlikka undaydi. Turli mavzular doirasida bolalarni fikrlashga, o‘z nutqini bayon eta olishga, izlanish va ijodkorlikka o‘rgatadi. Darslikda hayotiy topshiriqlar berilganki, o‘quvchi javobni o‘z olamidan, atrofidan izlashga o‘rganadi.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh.Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. “O’qituvchining o‘qish namunasiga ko‘ra o‘quvchilar to‘g‘ri, ifodali o‘qishni o‘rganadi. Darsda matnni o‘qib berish uchun o‘qituvchi puxta tayyorgarlik ko‘rishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o‘rinlari qanday o‘qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O‘qituvchi ayrim tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni qanday o‘qish kerakligini izohlagach, o‘quvchilar matnni navbat bilan o‘qishadi. O‘qituvchi ularni kuzatib, to‘g‘rilab boradi”.O‘qish texnikasini egallashda takror o‘qish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta o‘qilgan matn o‘quvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. O‘qish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yo‘naltiradi.

Binobarin, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi omillarni keltirish mumkin:

– o‘quv dasturida berilgan mavzular bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

– o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish;

– mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlash va nutqini o‘stirish;

– dars mashg‘ulotlarida ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida bog‘lanishli matn tuzish va yozish malakalariga e’tibor qaratish;

– ilmiy qarashlarga va badiiy ifodalarni izohlab, ularga subyektiv munosabat bildirish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish [2].

O‘quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini oshirish, tinglab tushunishga, fikrini bayon qilishga, ongli o‘qish va yozish ko‘nikmasini shakllantirishga o‘rgatish orqali ularning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalasi Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifani bajarishda o‘qituvchining o‘rni ham beqiyosdir. Izlanuvchanlik, kreativlik, fidoiylik,

mehnatsevarlik kabilar hozirgi zamon o‘qituvchisi uchun eng kerakli sifatlardir. Shu o‘rinda, hind olimi va davlat arbobi Doktor Abdul Kalamning quyidagi fikrlari yodga tushadi: "Agar biror mamlakat korrupsiyadan qutulishni va go‘zal sifatli xalqqa aylanishni xohlasa, dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartira oladigan jamiyatning uchta asosiy a’zosi borligiga qat’iy ishonaman. Ular ota, ona va muallim". Shunday ekan, jamiyatning ertangi kuni ustoz va murabbiylarning fidokorona mehnatlariga ham uzviy bog‘liqdir.

XULOSA

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar darsda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta’lim muassasasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zahirasi mavjud.Sifatli ta’limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an’anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o‘qituvchilar anglab yetmoqdalar. Shular jumlasidan, yaratilgan yangi avlod darsliklari, xususan, Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi ham ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasi deyishimiz mumkin. Bugungi foydalanilayotgan darsliklar samarasi o‘quvchilarni har jihatdan mustaqil dunyoqarash egalari bo‘lishlariga va ularning nutqiy,lingvistik va tayanch kompetentligini rivojlantirishga zamin hozirlaydi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi /2-sinf uchun darslik; Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

2. Qurbonova O.,Davletova A. O‘quvchilarning nutq madaniyati va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish. "Scientific progress"; Volume 3/issue 5/2022.

3. Temirova K.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnali, № 6/2022.

4. https://kopilkaurokov.ru

5. https://t.me/rtm_metodik_xizmat